

*Nigina MAVLYANOVA,
Buxoro davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi*

BuxDU dotsenti, PhD Axmedova Mehrinigor taqrizi asosida

O'ZBEK DRAMATURGIYASI TADRIJI VA UNING TURLI JANRLARIDA BOLALAR OBRAZI TASVIRI

Аннотация

O'zbek dramaturgiyasining tadrijiy rivoji XX asrning boshlariga bog'liq bo'lib, XXI asrda ham davom etdi. Garchi, o'zbek dramaturgiyasi cho'qqi nuqtasiga chiqmagan bo'lsa-da, o'zbek dramalari mavzu va qahramonlar ko'lami jihatdan boydir. O'zbek dramaturgiyasida drama, musiqali drama, komediya, fojia (tragediya) janriga mansub sahna asarlari yaratilib, tomoshabinlarga badiiy-estetik zavq berish hamda ularni mehnatsevarlik, qahramonlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. O'zbek bolalar dramalarida bolalarni ilm olishga, o'zaro do'stona yashash, birodarlik, zamonaga munosib ma'rifatli bo'lishga da'vat etildi.

Kalit so'zlar: Drama, bolalar obrazi, tragediya, komediya, hikoya, o'zbek dramaturgiyasi.

РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ И ИЗОБРАЖЕНИЕ ДЕТЕЙ В РАЗЛИЧНЫХ ЕЕ ЖАНРАХ

Аннотация

Постепенное развитие узбекской драматургии началось в начале 20 века и продолжилось в 21 веке. Хотя узбекская драматургия еще не достигла своего расцвета, узбекские драмы богаты темами и персонажами. В узбекской драматургии созданы сценические произведения, относящиеся к жанрам драмы, музыкальной драмы, комедии, трагедии (трагедии), служащие доставке зрителю художественного и эстетического удовольствия, воспитанию в духе трудолюбия, героизма, гуманности, патриотизм и дружба народов. В узбекских детских драмах детей призывали учиться, жить в дружбе, братстве, становиться просвещенными, достойными времени.

Ключевые слова: Драма, детский персонаж, трагедия, комедия, повесть, узбекская драматургия.

THE DEVELOPMENT OF UZBEK DRAMATURGY AND THE PORTRAYAL OF CHILDREN IN ITS VARIOUS GENRES

Annotation

The gradual development of Uzbek dramaturgy began at the beginning of the 20th century and continued into the 21st century. Although Uzbek dramaturgy has not reached its peak, Uzbek dramas are rich in themes and characters. In the Uzbek dramaturgy, stage works belonging to the genres of drama, musical drama, comedy, tragedy (tragedy) were created, which served to give the audience artistic and aesthetic pleasure and educate them in the spirit of hard work, heroism, humanity, patriotism, and friendship of peoples. In Uzbek children's dramas, children were encouraged to learn, live in friendship, brotherhood, and become enlightened worthy of the times.

Key words: Drama, children's character, tragedy, comedy, story, Uzbek dramaturgy

Kirish. O'zbek adabiyotida dramaturgiya janrining paydo bo'lishi jadidchilik harakati bilan bog'langan bo'lib, milliy dramaturgiya XX asrning 10-yillarida paydo bo'ldi va 20-yillardayoq ancha rivojlandi. Hamza Hakimzodaning "Boy ila xizmatchi", "Maysarining ishi", "Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi" singari sahna asarlari o'zbek dramaturgiyasi rivojiga katta hissa qo'shdi. Fitrat "Chin sevis", "Hind ixtilochilari", "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni", "Arslon" kabi dramatik asarlari orqali mamlakat hayotiga taalluqli bo'lgan rang-barang mavzularni yoritgan iste'dodli dramaturglardan biri edi. XX asrning 20-yillarida Komil Yashin ("Kar quloq", "Teng tengi bilan", "Lolaxon" dramalari), Ziyo Said, Xurshid, G'ulom Zafariy kabi yoshlar ham dramaturgiya sohasiga o'z hissalarini qo'shdilar va ular dramalarining asosiy mavzusi eski urf-odatlar va o'sha davrning muhim g'oyalari ifodalash edi. G'ulom Zafariyning "Halima" musiqali dramasi badavlat oila farzandi bo'lgan Halima va kambag'al kosib yigit Ne'matning sevgisi ijtimoiy tengsizlik va eski urf-odatlarining to'sqinligi tufayli ikki yoshning taqdirleri fojiali yakun topganini ta'sirli tarzda namoyish etadi. "Halima" XX asr 20- yillarining mashhur dramalaridan biri bo'lib, u musiqali drama janrining o'zbek adabiyotidagi dastlabki namunalaridan hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. 30-yillar dramaturgiyasi o'zbek adabiyotining jiddiy yutug'i bo'lib, bu davrda yaratilgan ko'pgina asarlar tomoshabinlarga badiiy-estetik zavq berish hamda ularni mehnatsevarlik, qahramonlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalashga xizmat qildi, garchi ijtimoiy hayotda haqsizlik va adolatsizliklar, jabr-zulmlar bo'lib turgan bo'lsa-da, 30-yillarda o'zbek adabiyoti o'z tarixining yangi bosqichiga, ya'ni zamonaviy mavzular va zamondoshlar obrazini yaratish davriga ko'tarildi.

XX asr 70-80 yillarida zamonaviy axloqiy muammolardan kelib chiqadigan va bolalarning jamiyatdagi o'rni, ular ishtirokida sodir bo'ladigan muammoviy vaziyatlarni tasvirlovchi ko'plab asarlar yaratildi. Uyg'unning "Parvoz", O'Umarbekovning "Qiyomat qarz", "O'z xohishiga ko'ra", M.Karimovning "Intilganga tole yor", "Insonlikka nomzod", M.Boboyevning "O'ttizi Yoshlilar", "Gurung", Sharof Boshbekovning "Toshkentlik mehmon", "Tikansiz tipratikanlar", "Taqqir eshigi" kabi dramalarida mualliflar hayot ziddiyatlari va zamonaviy odamlar xarakterining yangi qirralarini ochib berishdi.

XX asr oxiri o'zbek bolalar dramaturgiyasining shakllana boshlagani bilan alohida ajralib turadi. G'ulom Zafariyning 20-yillarda ijod etgan bir pardali yoki bir ko'rinishli kichik p'yesalari bolalar dramaturgiyasining dastlabki namunalari sifatida qayd etiladi. Bu haqda M.Olimova, B.Imomov kabi adabiyotshunos olimlar quyidagicha fikr bildirishadi: "U 20-yillarining dastlabki kunlaridan boshlab, bolalar uchun kichik-kichik sahna asarlari yaratishga kirishdi. Adib ularda xalqchil kuy-qo'shiqlardan, bolalar olamida tarqalgan o'yin usullaridan mo'l-ko'l foydalandi. Bolalarning farahli tabiat quchog'ida shod-xurram yashashlarini sahnaviy usullar yordamida jonlantirdi"[1]. G'ulom Zafariy "Tilak" p'yesasida bolalarni ilm olishga, o'zaro do'stona yashash, birodarlik, zamonaga munosib ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi. Muallif asar qahramoni Murodning o'y-fikrlarini ochishda, uni individuallashtirishda sirli-romantik usullarni qo'llab, sahnaviylikka, ta'sirchanlikka erishgan va o'zbek bolalar dramaturgiyasining 1920-80- yillardagi namunalari va xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi. G' Zafariyning 1915-1926-yillarda yozgan "Bahor", "Binafsha", "Quyov", "Rahimli shogird", "Mozorlikda", "Erk bolalari", "Tatimboy ota" singari bir pardali operettalari bolalar va yoshlar hayotidan olingan bo'lib, ular o'zbek adabiyoti tarixida bolalar musiqali dramasi dastlabki namunalari ekanligini professor N.Karimov alohida ta'kidlaydi[7].

O'zbek dramaturgiyasining yorqin namoyondalaridan biri A.Obidjon ham dramaturgiya rivojiga folklor orqali murojaat qilib, "Pahlavonning o'g'irlanishi", "Qo'ng'iroqli aldoqchi", "Qorinbotir" singari zamonaviy bolalar ertak-pyesalari yaratdi. Bu jihatdan u Po'lat Mo'minning "Qovoqvoy bilan Chanoqboy", "Suqatoy va Konfetboy", "Ona bolam deydi, bola onam deydi", G'ani Jahongirovning "Ajoyib urug'", O.Tolibov va I.Ahmedovlarning "G'ayrat va g'afolat", Ergash Raimovning "Qorboboning yangi yil sarguzashtlari" va Rahim Farhodiyning "O'tkir shoxli buqacha" singari ertak p'yesalarida ko'ringan salbiy xarakterdagi stilizatsiyalash usulini yanada chuqurlashtirdi va bu an'ananing hayotiyiligini ta'minladi. Bu ertak-p'yesalarda nafaqat sujet qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatlarida, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviriy vositalar yetakchi taomilga aylangan[11].

Shukur Sa'dulla folklor materiallaridan ijodiy foydalanib, bir nechta dramatik asarlar ham yozdi. Uning "Yoriltosh" musiqali ertak-dramasi (1937) va opera librettosi (1967), "Chol bilan bo'ri" kichik she'riy p'yesasi (1967), "Zubayda" (1969) ertak-dramasi o'zbek bolalar dramaturgiyasining yuksalishida hissa qo'sha oldi. "Yoriltosh" – Shukur Sa'dullaning o'smirlar hayotini tasvirlagan va shu yoshdagi tomoshabinlarga mo'ljallangan musiqali ertak-dramadir. Drama "Yoriltosh" ertagi syujetini stilizatsiya qilish bilangina cheklanmasdan, shu ertakda tasvirlangan o'gaylik motivlari ta'sirida yozilgan. Dramaturg uni uch marta qayta ishlab, o'zbek bolalar dramaturgiyasining yorqin namunasiga aylantira oldi. Dramaturg xalq ertagini badiiy jihatdan to'liq qayta ishlab, ertakning nasriy qismini dramatik syujet bilan boyitdi. Faqat Gulnoraning toshga, Oymomaning opasiga yulvorib aytgan so'zlari she'riy ifodalangan bo'lsa, ertak-drama esa ko'proq she'rlar asosida tuzilgan. U to'rt parda, olti ko'rinishli bo'lib, ham nasr, ham nazmdan tashkil topgan, unda qahramonlarning ichki kechinmalari, orzu-havaslar, tuyg'ulari she'r orqali beriladi. Sahna Gulnoraning bog' etagida, boshida gulchambar, ashula aytib yurgan ko'rinishi bilan boshlanadi:

Erkin-erkin yursam men,
Davri-davron sursam men,
Baxtli kunlar ko'rsam men,
Qandi-navvot so'rsam men.
Bo'lsa chambar boshimda,
Xuddi guldek yoshimda,
Bulbul bo'lsa qoshimda,
Shakar bo'lsa oshimda...

Shukur Sa'dulla bu asarni musiqiy ertak-dramaga moslab yozgani sababli, unda shunga o'xshash she'riy matnlar ko'p uchraydi. O'gay ona va Gulnora o'rtasidagi ziddiyatlar barcha o'gaylik motividagi ertaklarga o'xshab ketadi: sho'rlik qizga zulm qilinadi, uying barcha yumushi uning bo'ynida bo'ladi va xo'rlanadi, Gulnora shu zulmlarini kuylarida, qo'shiqlarida aks ettiradi.

Shukur Sa'dullaning xalq og'zaki ijodining boy merosidan unumli foydalana olgan, u xalq ijodiga xos motivlarni ham ertak-dramada o'rinni ifodalagan. Xullas, Shukur Sa'dulla ham shoir, ham yozuvchi, ham dramaturg, ham tarjimon, ham folklorshunos sifatida bolalarga qirqdan ortiq kitob hadya etib, o'zbek bolalar adabiyoti xazinasini boyitgan professional ijodkordir[11].

Dramalarda bola qahramonlarni asosiy yoki ikkinchi darajali qahramon sifatida keltirishda dramaturg bolaning yoshi, uning psixologik holati va qiziqishlariga e'tibor berishi zarur. Adabiyotda turli yosh davrlari ruhiyatining bir-biridan sezilarli farqini asoslab berish uchun psixologiyaga murojaat qilish kerak. Chaqaloqlik, ilk bolalik, maktabgacha ta'lim yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlilik, o'spirinlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, sifatlarga ega bo'lib, ular bir-biridan odamning xronologik yosh ko'rsatkichlariga ko'ra emas, balki shu davrda inson ruhiyatida kechadigan hodisalar, ro'y beradigan o'zgarishlar uning ruhiyatidagi umumiy qonuniyatlarga binoan ham farqlanishi ta'kidlangan. Bolalar qalbini badiiy tadqiq etish, bolalikni badiiyat ko'zgisida butun borlig'icha aks ettirish, bola dunyoqarashi, botiniy va zohiriy takomillashuvi hamda ijtimoiy-axloqiy jihatdan shakllanish jihatlarini ko'rsatish uchun dramaturg qahramonning yosh xususiyatlari, ruhiyati, saviyasi va qiziqishlarini nazarda tutishni talab etadi. Adabiyotda bola qahramonlar quyidagicha bo'linadi:

- 1) 0 yoshdan 2 yoshgacha – chaqaloqlik davri
- 2) 2 yoshdan 6-7-yoshgacha – maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar;
- 3) 7-yoshdan 11-12 yoshgacha – kichik maktab yoshdagi bolalar;
- 4) 12-13 yoshdan 16-17 yoshgacha – o'smirlar;
- 5) 18 yoshdan katta, lekin bolalarcha tabiati saqlanib qolgan yoshi kattalarni tashkil qiladi.

O'zbek dramalarining asosiy yutug'i dramaturglar bir necha yoshdagi bola, o'smir obrazlarini asarda tasvirlab, ularning yosh farqlarini nutqi, munosabatlari, dialog, monologlarida ifodalagan.

Masalan, Hoji Muinning "Eski maktab, yangi maktab" 3 pardali teatr risolasida Bo'ri ("Chor kitob"xon) 14 yashar o'spirin bola, Ortuq ("Xo'ja Xofiz"xon) 16 yashar o'smir, Salim ("Xaftiyak"xon) 12 yashar bola, Melik ("Axmad"xon) 10 yasharlik bola obrazlari mavjud. Bundan tashqari, Ahmadjon, Abdulla, Ismoil, Usmon kabi maktab talabalari ham qatnashgan. Dramaturgning mahorati o'smirlilik ham jismoniy, ham ma'naviy-axloqiy balog'atga yetishuv davri ekanligini qahramonlar xatti-harakati orqali ko'rsatishidir.

Dramatik tur o'zbek adabiyotiga kirib kelganiga bir asr bo'ldi va yuz yillik tarix va tajribaga ega bo'lgan o'zbek dramaturgiyasi boshqa adabiy turlardan sustroq rivojlanishini, ayniqsa XX asrning 70-80 yillariga va mustaqillikning dastlabki yillarida sezish mumkin edi. Bunday sustkashlikning muayyan ob'yektiv va sub'yektiv sabablari ham bor. Shuni ta'kidlash o'rinliki, o'zbek adabiyotida faqat dramaturgiya bilan shug'illanadigan maxsus ijodkorlar juda kam. Borlari ham tezda shuhrat topib kashfiyot darajasidagi sahna asarlari yaratib, teatrlarning doimiy hamkoriga aylanib ketolmaydilar. Shunday talantli drama yaratilib, sahnalashtirilsa ham unga tomoshabinni jalb etish muammosi tug'iladi. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti tufayli dramaturg o'z asari bilan boyib ketayotgani yo'q. Shunga qaramay so'nggi 20 yil ichida drama yaratilmay ham qolmadi, sahna bo'shab ham qolmadi, ozmi-ko'pmi tomoshabin teatrga ham kirib turdi. Bu davrda zamonaviy mavzularda ham ko'plab dramalar dunyoga keldi, Erkin Xushvaqto'v, Salohiddin Sirojiddinov, Usmon Azim, Sanjarali Imomov, Xoliq Xursandov, Nasrullo Qobil, Komil Avaz Toir Yunusovlar samarali ijod qildilar. E.Xushvaqto'vning O'zbekiston milliy teatrida birin-ketin sahnalashtirilgan "Chimildiq", "Qalliq o'yin", "Qirmizi olma", "Andishali kelinchak" kabi dramalariga iloji boricha o'zbek xalqining azaldan yashab kelgan an'analari ruhini, mohiyatini singdirishga, ularni yangicha an'analar bilan boyitishga, yosh avlodning munosabatini oshirishga urinadi[12].

Xulosa. O'zbek dramalarining asosiy yutug'i dramaturglar bir necha yoshdagi bola, o'smir obrazlarini asarda tasvirlab, ularning yosh farqlarini nutqi, munosabatlari, dialog, monologlarida ifodalagan.

Adabiyotda bola qahramonlar quyidagicha bo'linadi:

- 1) 0 yoshdan 2 yoshgacha – chaqaloqlik davri
- 2) 2 yoshdan 6-7-yoshgacha – maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar;
- 3) 7-yoshdan 11-12 yoshgacha – kichik maktab yoshdagi bolalar;
- 4) 12-13 yoshdan 16-17 yoshgacha – o'smirlar;
- 5) 18 yoshdan katta, lekin bolalarcha tabiati saqlanib qolgan yoshi kattalarni tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR

1. B.Imomov, Q.Jo'rayev, H.Hakimova. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995. –B. 205.
2. Bahodirovna, A. M. THE CONCEPT OF ALTERNATIVE IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 169.
3. Bakhodirovna, A. M. (2015). Effectiveness of teaching vocabulary through short stories. World science, (1 (1)), 55-57.
4. Bowlby R. A Child of One's Own: Parental Stories, 2013.
5. Carol G.Lynch-Brown Carl M.Tomlinson. Essentials of Children's Literature. –
6. Edinburgh Gate. Pearson Education Limited, 2014. – P.17.
7. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent, "O'zbekiston", 2008. –B.167.
8. Kolve V. A. The Play Called Corpus Christi, 1966.
9. Konesko P. M. Representing Childhood: the Social, Historical, and Theatrical Significance of the Child on Stage, 2013
10. M.Y.Kaxarova. Ingliz va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar ruhiyati tasviri. f.f.f.d.ilmii darajasini olish uchun dissertatsiyasi. Buxoro, 2023.
11. O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilova. Bolalar adabiyoti. Darslik, Buxoro. – 2018.
12. Ulug'ova N.B. O'zbek adabiyotida dramaturgiya. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 5 ISSN 2181-1784, 2022. –P.1087-1092.